O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIM VA ILM-FAN VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



“O‘ZBEK TILINING GLOBAL MAQOMI VA NUFUZINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI”

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI







2026-yil
16-oktabr

RUS TILIDAGI AYRIM GIPPOLOGIK BIRLIKLAR TADQIQIGA DOIR

ON THE STUDY OF CERTAIN HIPPOLOGICAL UNITS IN THE RUSSIAN LANGUAGE

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2026.10.16/WMZQ5431

Bozorova Sabohat Ramazonovna
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
katta o‘qituvchisi
sabohatbozorova1970@gmail.com

Annotatsiya. *Rus tilidagi gippologik leksika uzoq vaqt davomida mutaxassislar e’tiborini tortib kelgan. Mazkur yo‘nalishdagi dastlabki kuzatishlar XVIII asrga mansub bo‘lib, ular asosan конь va лошадь leksemalarining o‘zaro munosabati hamda ularning nutqdagi funksional differensiallashuvini izohlashga qaratilgan edi. Keyinchalik bu masala tarixiy leksikologiya va etimologiyaning markaziy muammolaridan biriga aylandi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida gippologik terminologiya ko‘proq etimologik nuqtayi nazardan o‘rganildi. Bu davr tadqiqotlarida alohida nomlarning kelib chiqishi, turkiy va boshqa xalqlar bilan aloqalar, ayrim terminlarning rus tiliga kirib kelish yo‘llari aniqlashtirildi. Shu bilan birga, qadimgi rus yozma yodgorliklarida kam uchraydigan yoki dialektal xarakterga ega bo‘lgan nomlarning tarixiy maqomi masalasi ham ilmiy muomalaga kiritildi. XX asr o‘rtalaridan boshlab gippologik leksikani o‘rganishda tizimli yondashuv kuchaydi. Ayniqsa, ot nomlari tizimining ichki tuzilishi, sinonimik qatorlari, semantik differensiallashuvi va hududiy variantlari tarixiy-leksikologik tadqiqotlarning muhim obyektiga aylandi. Bu davrda gippologik terminlarning taraqqiyoti ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy omillar bilan bog‘liq holda talqin qilina boshladi. Xususan, terminologik tizimdagi ko‘p variantlilik va ot nomlarining ko‘pligi yilqichilikning xo‘jalik va harbiy hayotdagi muhim o‘rni bilan izohlandi.*

Kalit so‘zlar: *rus tili, gippologik terminologiya, gippologik leksika, gippologik birlik, ilmiy tasnif.*

Annotation. *Hippological vocabulary in the Russian language has long attracted the attention of scholars. The earliest observations in this field date back to the eighteenth century and were primarily concerned with the relationship*

between the lexemes конь and лошадь and their functional differentiation in speech. Subsequently, this issue became one of the central problems of historical lexicology and etymology. In the late nineteenth and early twentieth centuries, hippological terminology was studied predominantly from an etymological perspective. Research conducted during this period clarified the origins of individual names, their relations with Turkic and other peoples, and the ways in which certain terms entered the Russian language. At the same time, the historical status of names that were rarely encountered in Old Russian written monuments or that had a dialectal character was also brought into scholarly discussion. From the mid-twentieth century onwards, a systematic approach to the study of hippological vocabulary became increasingly prominent. In particular, the internal structure of the system of horse names, synonymic series, semantic differentiation, and regional variants became important objects of historical and lexicological research. During this period, the development of hippological terms began to be interpreted in relation to socio-economic and cultural factors. In particular, the abundance of variants within the terminological system and the diversity of horse names were explained by the important role of horse breeding in economic and military life.

Keywords: *Russian language, hippological terminology, hippological vocabulary, hippological unit, scientific classification.*

1950-1970-yillarda olib borilgan tadqiqotlar natijasida rus gippologik leksikasining etimologik va semantik tavsifiga oid muhim natijalar qo‘lga kiritildi. Bu davrda nafaqat asosiy terminlar (*конь, лошадь, кобыла, жеребец, мерин*), balki ularning hosila shakllari, yosh, jins, zot, rang va funksional belgilarni ifodalovchi nomlar ham o‘rganila boshladi. Shu bilan birga, ayrim terminlarning semantik taraqqiyoti, tarixiy qo‘llanish doirasi va o‘zaro munosabatlari yuzasidan turli, ba’zan qarama-qarshi ilmiy qarashlar shakllandi.[Одинцов Г.Ф., 1980: 5-15]

Gippologik leksikani tadqiq etishning keyingi bosqichi qiyosiy-tarixiy va areal yondashuvlarning kuchayishi bilan tavsiflanadi [Котков С.И., 1952:1-25; Котков С.И. 1962:42; Туркин В.Н., 1962: 82-83; Шиловский А.Н., 1956: 139-140; Ильенко В.В., 1958: 15] Slavyan, turkiy va boshqa tillar materiallarining jalb qilinishi natijasida ko‘plab ot nomlarining etimologiyasi va tarixiy aloqalari aniqlashtirildi. Biroq tadqiqotlarning aksariyati ayrim terminlar yoki cheklangan

manbalar doirasida olib borilgani sababli gippologik leksikaning yaxlit tizim sifatidagi taraqqiyoti uzoq vaqt yetarlicha yoritilmay qoldi.

XX asrning ikkinchi yarmida gippologik terminologiyani XI-XVIII asrlar yozma yodgorliklari materiallari asosida kompleks ravishda o‘rganishga intilish kuchaydi. Bunday yondashuv natijasida ilgari e’tibordan chetda qolgan ko‘plab terminlar, ularning dialektal va hosila shakllari, shuningdek, tarkibli nomlar ilmiy muomalaga kiritildi. Natijada rus gippologik leksikasi alohida nomlar majmuyi sifatida emas, balki tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan murakkab leksik-semantik tizim sifatida talqin qilina boshlandi [Сетаров Д.С., 1971; Хитрова В.И., 1972; Аронайте Л., 1973:59; Львов А.С., 1975: 10, 143, 145-147, 177, 277, 345; Одинцов Г.Ф., 1980]. Gippologik leksikani tadqiq etish metodologiyasida leksik-semantik guruhlar nazariyasi muhim konseptual asoslardan biri sifatida qaror topdi. Ushbu yondashuv terminlarni umumiy denotativ maydon doirasida o‘zaro semantik jihatdan shartlangan birliklar majmuyi sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi. Bunda guruh tarkibini aniqlashda kontekstual oppozitsiyalar va yaqinlashuvlar, qo‘llanish sohasi va funksional maqom, shuningdek, terminlarning denotativ mazmuni asosiy differensial belgilar sifatida e’tirof etiladi. Mazkur metod, ayniqsa, etimologiyasi yoki tarixiy semantikasi mavhumlashgan nomlarning mazmunini rekonstruksiya qilishda samarali vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Rus gippologik leksikasini o‘rganishda diaxronik va sinxron tahlil tamoyillarining o‘zaro uyg‘unlashuvi kuzatiladi. Diaxronik yondashuv terminlarning tarixiy evolyutsiyasini, semantik transformatsiyalarini va funksional qayta taqsimlanishini aniqlashga xizmat qilsa, sinxron kesimlar muayyan davr ichidagi leksik munosabatlar tizimini tavsiflash imkonini beradi. Shu tariqa gippologik terminologiya tarixiy harakatdagi va bir vaqtning o‘zida tizimli tashkil topgan leksik qatlam sifatida tadqiq etiladi.

Rus tilidagi gippologik leksikani o‘rganishda A.P.Sumarokov, A.S.Shishkov, E.E.Ballion, F.P.Filin, M.Fasmer, O.N.Trubachev, F.Slavskiy, G.A.Bogatova, P.Y.Chernix, S.I.Kotkov, L.L.Kutina, O.G.Poroxova, V.N.Turkin, A.N.Shilovskiy, V.V.Ilyenko, G.A.Xaburgayev singari olimlarning tadqiqotlari muhim o‘rin tutadi. Rus gippologik leksikasini o‘rganish jarayoni etimologik-deskriptiv tavsif bosqichidan tizimli tarixiy-leksikologik tahlil bosqichiga o‘tish bilan xarakterlanadi. Buning natijasida ot nomlari majmui alohida leksik birliklar yig‘indisi sifatida emas, balki tilning tarixiy rivojlanishi,

ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar va yilqichilik madaniyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan murakkab nominativ sistema sifatida konseptuallashtirildi.

XX asr o‘rtalarida rus gippologik leksikasini o‘rganish etimologik va tarixiy-leksikologik yo‘nalishlarda rivojlandi. M.Fasmer gippologik terminlarning kelib chiqishi va til aloqalarini aniqlashga, O.N.Trubachev ularning tarixiy-etimologik taraqqiyotini qiyosiy materiallar asosida yoritishga, G.F.Odinsov esa ot nomlarini leksik-semantik tizim sifatida tavsiflashga muhim hissa qo‘shdi.

M.Fasmer rus gippologik leksikasini o‘rganishga bevosita maxsus tadqiqot bag‘ishlamagan bo‘lsa-da, uning etimologik izlanishlari ushbu sohaning nazariy poydevorini yaratishda muhim rol o‘ynadi. Olim tomonidan ot nomlari va yilqichilik terminologiyasiga oid leksemalarning etimologik tavsifi berilib, ularning kelib chiqishi, tarixiy fonetik va semantik o‘zgarishlari hamda boshqa tillar bilan aloqalari yoritildi. Natijada rus gippologik terminologiyasining genetik tarkibini aniqlash va uning shakllanishida slavyan hamda turkiy unsurlarning o‘rnini belgilash imkoniyati kengaydi.

Rus gippologik leksikasining etimologik tadqiqida O.N.Trubachevning ilmiy izlanishlari alohida o‘rin egallaydi. Uning tadqiqotlari gippologik terminlarni tor etimologik tavsif doirasidan chiqarib, slavyan leksikasining tarixiy-madaniy taraqqiyoti kontekstida talqin etishga xizmat qildi. Olim tomonidan qo‘llangan qiyosiy-tarixiy yondashuv natijasida ot nomlari va yilqichilik terminologiyasining genetik manbalari, semantik evolyutsiyasi hamda boshqa slavyan va noslavyan tillari bilan aloqalari chuqurroq yoritildi. Shu jihatdan O.N.Trubachevning tadqiqotlari rus gippologik leksikasining tarixiy-etimologik rekonstruksiyasini amalga oshirishda muhim nazariy asoslardan biri hisoblanadi.

Rus gippologik leksikasini o‘rganish metodologiyasining shakllanishida F.P.Filinning xizmatlari alohida e’tirof etiladi. Olim leksik tizimning ichki tashkil topish qonuniyatlarini tadqiq etib, semantik jihatdan o‘zaro bog‘langan birliklarni leksik-semantik guruhlar va mikrosistemalar doirasida tahlil qilish tamoyilini ishlab chiqdi. Bu yondashuv gippologik terminlarni izolyatsiyalangan leksemalar sifatida emas, balki ma’lum nominativ maydonni tashkil etuvchi o‘zaro munosabatdagi birliklar sifatida talqin qilish imkonini berdi. Shuningdek, Filinning dialektologik tadqiqotlari tarixiy leksikaning hududiy differensiallashuvi va arxaik qatlamlarini aniqlashda muhim metodologik manba bo‘lib xizmat qildi.

Rus tarixiy leksikologiyasi va etimologiyasi doirasida gippologik terminologiyaning shakllanishi hamda taraqqiyotini maxsus tadqiq etgan olimlar orasida G.F.Odinsov alohida o‘rin egallaydi. Uning ilmiy ishlari XII–XVII asrlarga oid yozma yodgorliklar materiallari asosida rus tilidagi yilqichilik terminlarining tarixiy-semantik rivojlanishi, etimologik manbalari va terminologik tizim sifatida shakllanish qonuniyatlarini aniqlashga qaratilgan.Olimning nomzodlik dissertatsiyasi rus gippologik leksikasini tarixiy-lingvistik aspektda kompleks o‘rganishga bag‘ishlangan dastlabki maxsus tadqiqotlardan biri hisoblanadi. Tadqiqotda qadimgi rus yozma manbalari asosida ot bilan bog‘liq nomlarning leksik-semantik tarkibi, ularning funksional differensiallashuvi hamda tarixiy taraqqiyot bosqichlari yoritilgan. Muallif gippologik leksikaning shakllanish jarayonini ijtimoiy-madaniy va xo‘jalik omillari bilan bog‘liq holda tahlil qiladi [Одинцов Г.Ф., 1970].

Rus gippologik terminologiyasining tarixiy tarkibi va struktur-semantik xususiyatlarini tadqiq etar ekan, G.F.Odinsov otning jinsi, yoshi, rangi, zoti hamda xo‘jalik vazifasiga ko‘ra shakllangan nomlarning o‘zaro munosabatlarini aniqlashga harakat qiladi. Natijada rus gippologik terminologiyasining murakkab va ko‘p qatlamli tizim ekanligi asoslab beriladi [Одинцов Г.Ф., 1970]. G.F.Odinsov ilmiy merosida etimologik tadqiqotlar muhim o‘rin tutadi. U rus tilidagi ayrim gippologik terminlarning turkiy, xususan, no‘g‘ay tiliga borib taqaluvchi etimologik manbalarni tahlil qiladi. Tadqiqot rus tili leksik tizimining shakllanishida slavyanlar va turkiy xalqlar o‘rtasidagi uzoq davom etgan til aloqalarining muhim rol o‘ynaganligini ko‘rsatadi. Muallif etimologik tahlilda tarixiy-fonetik, semantik va areal-lingvistik mezonlardan foydalanadi [Одинцов Г.Ф., 1971: 201-204].

Olimning shu yo‘nalishdagi izlanishlari rus tilidagi asosiy gipponimlardan biri bo‘lgan *лошадь* leksemasining kelib chiqishiga bag‘ishlangan. G.F.Odinsov mazkur leksema etimologiyasi yuzasidan ilgari surilgan nazariyalarni tanqidiy qayta ko‘rib chiqib, tarixiy va qiyosiy materiallar asosida yangi dalillar keltiradi. Tadqiqotda, ayniqsa, turkiy tillar bilan genetik va kontakt aloqalar masalasiga alohida e’tibor qaratiladi. Uning ilmiy qarashlari rus etimologiya maktabida *лошадь* terminining kelib chiqishi haqidagi ilmiy bahslarning muhim bosqichlaridan biri sifatida baholanadi [Одинцов Г.Ф., 1974: 114-128].

G.F.Odinsov gippologik terminologiyaning alohida semantik guruhini tashkil etuvchi rang bildiruvchi birliklarga ham e’tibor qaratadi, ot ranglarini ifodalovchi nomlarning tarixiy taraqqiyoti, semantik transformatsiyasi hamda

terminologik tizimdagi o‘rnini aniqlaydi. Muallif rang nomlarining shakllanishida og‘zaki so‘zlashuv, otboqarlar leksikasi va turkiy tillar bilan til aloqalarining ta’sirini ko‘rsatib beradi. Bu bilan gippologik leksikaning ichki semantik tasnifini tiklashga xizmat qiluvchi muhim tadqiqotlardan birini yaratadi [Одинцов Г.Ф., 1978: 172-221].

Olimning ko‘p yillik izlanishlar natijasida yaratilgan “*Из истории гиппологической лексики в русском языке*” (Rus tilidagi gippologik leksika tarixidan”) monografiyasi rus gippologik leksikasining tarixiy rivojlanishini kompleks o‘rganishga bag‘ishlangan fundamental tadqiqotlardan biri hisoblanadi. Unda ot nomlari tarixiy yozma yodgorliklar materiallari asosida diaxronik aspektda tahlil qilinib, ularning semantik evolyutsiyasi, nominativ funksiyalari va leksik tizimdagi o‘zaro munosabatlari ochib berilgan. Asarning ilmiy qiymati gippologik terminologiyani tizimli leksik-semantik birlik sifatida talqin etishida, shuningdek, rus tilidagi ot nomlarining shakllanish va taraqqiyot qonuniyatlarini aniqlashga qaratilgan metodologik yondashuvni taklif etishida namoyon bo‘ladi [Одинцов Г.Ф., 1980: 224]. Shu jihatdan mazkur tadqiqot rus gippologik leksikasining tarixiy tadqiqi bo‘yicha muhim nazariy va manbashunoslik ahamiyatiga ega.

Rus gippologik leksikasini tarixiy-leksikologik jihatdan o‘rganishda A. E. Suprunning tadqiqotlari alohida bosqichni tashkil etadi. Olim tomonidan qadimgi va eski rus yozma yodgorliklari materiallarining keng korpusi ilmiy muomalaga kiritilib, ot nomlarining diaxron rivojlanishi, semantik transformatsiyalari hamda terminologik tizim ichidagi munosabatlari kompleks tarzda yoritilgan. Muallif leksik birliklarni leksik-semantik guruhlar doirasida tahlil qilish orqali gippologik nominatsiyaning ichki tizim asosida tashkil topishini ko‘rsatib bergan. Shu jihatdan Suprunning monografiyasi rus gippologik leksikasining tarixiy rekonstruksiyasiga bag‘ishlangan fundamental tadqiqot sifatida baholanadi.

Rus tilida *ot*ning muqobili bo‘lgan *лошадь* gipponimi qishloq xo‘jaligida asosiy ish kuchi bo‘lgan, yuk tashishda ham ishlatiladigan otni bildiradi. *Конь* leksemasi esa, asosan, janglarda qatnashadigan otlar ga nisbatan ishlatiladi, badiiy uslubga xos hisoblanadi. Bu an’anaviy taqsimot *Кляча воду возит, лошадь пашет, конь под седлом* (Qirchang‘i suv tashiydi, ot yer haydaydi, arg‘umoq egar ostida) maqolida ham aks etgan.

“Rossiya Fanlar akademiyasi tomonidan tayyorlangan *Rus tili lug‘ati* (IV jild, Sankt-Peterburg, 1913, “конь” maqolasi) hamda Moskva dialektologik komissiyasi (N.N.Durnovo va boshqalar) faoliyati

davridan boshlab, “лошадь” so‘zining, asosan, Rossiyaning janubiy hududlarida, “конь” leksemasining esa shimoliy hududlarida tarqalganligi haqidagi fikr ilmiy adabiyotlarda an’anaviy qarash sifatida qaror topgan” [Одинцов Г.Ф., 1974: 114].

G.F.Odinsov E.Dikkenmanning qadimgi rus va eski rus davriga mansub 11ta gipponim*(актазъ, аргамакъ, бахматъ, драгантъ, фаръ (и фарисъ), клюсѧ, кляча, оръ, санникъ, скокъ, иноходъ)*ni ko‘rib chiqqani, XI–XVII asrlar yozma manbalarida bundan tashqari yana 59 ta ot nomi mavjudligini qayd etadi [Одинцов Г.Ф., 1980: 8]. “Shu bilan birga, tarixiy-leksikologik tadqiqotlarda tahlilga jalb etilgan leksik materialning qamrov darajasi muhim ahamiyat kasb etadi. E.Dikkenmann o‘z tadqiqotida *комонъ, конъ, лошадь, кобыла, жеребец, мерин* so‘zlari hamda ular bilan o‘zakdosh hosilalardan tashqari yana 17 ta ot nomini ko‘rib chiqadi [Dickenmann E.,1977]. Ularning aksariyatini Petr I davrigacha bo‘lgan qadimgi yozma yodgorliklarda qayd etilgan nomlar tashkil etsa, nisbatan kam qismi yangi davrda paydo bo‘lgan *битюг, казанка, крымка, маштак, шкапа, черноморка* kabi terminlardir” [Одинцов Г.Ф., 1980: 7-8].

Ayrim birliklarning etimologik tahlili rus gippologik leksikasining shakllanishida slavyan va turkiy tillar o‘rtasidagi tarixiy-lisoniy aloqalarning ham muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, G.F.Odinsov tadqiqotlarida ayrim gippologik terminlarning turkiy, xususan, no‘g‘ay tiliga aloqador etimologik manbalari tahlil qilingan. Bu holat rus tilidagi gippologik nominatsiyaning shakllanishini tillararo aloqalar va tarixiy-madaniy jarayonlar bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Конь va **лошадь** leksemalarining qo‘llanishidagi funksional va uslubiy farqlar rus tilida ot nomlarining nominativ imkoniyatlari tarixiy sharoit va qo‘llanish sohasi bilan bog‘liq ravishda differensiallashganini ko‘rsatadi. Shuningdek, otlarning rang-tusini ifodalovchi ayrim birliklarning shakllanishi va semantik taraqqiyotida shevalar hamda turkiy tillar bilan aloqalarning ta’siri kuzatiladi. Gippologik birliklar nafaqat maxsus nominativ vosita, balki muayyan tarixiy-xo‘jalik tajribasi va madaniy an’analarni o‘zida aks ettiruvchi leksik qatlam sifatida ham ahamiyatlidir.

Mavzu doirasida tahlil qilingan ayrim gippologik birliklar rus tilining tarixiy leksik tarkibida alohida o‘rin egallashi, ularning semantik va nominativ xususiyatlari tilning tarixiy rivojlanishi, yilqichilik madaniyati hamda boshqa tillar bilan uzoq davom etgan aloqalar bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatdi. Mazkur natijalar rus tilidagi gippologik leksikaning boshqa birliklarini ham

tarixiy-leksikologik va lingvomadaniy jihatdan tadqiq etish uchun asos bo‘la oladi.

ADABIYOTLAR

1.Аронайте Л. Из истории слов со значением «лошадь» в русском и белорусском языках // – Kalbotyra, 1973. – Т. 24, № 2. – С. 63–71.

2.Dickenmann E. Das Pferd in russischen Nomina ap pellativa und Nomina propria. — Beitrage zur Namenforschung. Neue Folge. Beiheft 11. Heidelberg, 1977.

3.Ильенко В.В. Западные, юго-западные и южные слова в великорусских летописях XV–XVI вв. Учебное пособие. – Днепропетровск, 1958.

4.Котков С.И. Вопросы истории русского языка в свете некоторых данных южновеликорусских памятников // Вопросы образования восточнославянских национальных языков. – М.: Изд-во АН СССР, 1962. – С. 41–46.

5.Котков С.И. Говоры Орловской области (фонетика и морфология). Дис. ... д-ра филол. наук. –Т. I-II.– М., 1951.

6. Львов А.С. Лексика «Повести временных лет». – М.: Наука, 1975.

7.Одинцов Г.Ф. Два ногайских заимствования в русском языке // Этимология. 1971. – М.: Наука, 1973. – С.195–204.

8.Одинцов Г.Ф. Еще раз к этимологии слова *лошадь* // Этимология, 1972. – М.: Наука, 1974. – С. 114–128.

9.Одинцов Г.Ф. Из истории русской гиппологической терминологии // Уч. зап. – М.: МГПИ. № 353, М., 1970.

10.Одинцов Г.Ф. История русских названий лошадей (на материале памятников XII–XVII в.): дис. ... канд. филол. наук. – М., 1970.

11.Одинцов Г.Ф. Из истории гиппологической лексики в русском языке. — М.: Наука, 1980.

12.Сетаров Д.С. Тюркизмы в русских названиях животного мира: дис. ... канд. филол. наук. – Алма-Ата, 1971.

13.Туркин В.Н. Этюды по древнерусской синонимике // Тези доповідей V міжвузівськоі республіканськоі славістичноі конференціі 25–30 вересня 1962 року. – Ужгород, 1962. – С.83-84.

14.Хитрова В.И. Местная лексика в языке воронежских рукописных памятников XVII – первой четверти XVIII веков: дис. ... канд. филол. наук. Воронеж, 1972.

15.Шиловский А.Н. Хозяйственно-бытовая лексика «Послания Даниила Заточника» // Наукові записки Дніпропетровського державного університету ім. 300-річчя возз’єднання України з Росією. – Київ: ДДНУ , 1956. – Т. 52, вип. 9, с. 139–140.

MUNDARIJA

KIRISH SO‘ZI		
Sirojiddinov Sh.S.	O‘zbek tilining xalqaro nufuzini oshirish zarurati	**6**
I. O‘ZBEK TILINING JAHON TILLARI TIZIMIDAGI O‘RNI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI		
Xolmanova Z.	O‘zbek tilining jahon tillari tizimidagi mavqeyini belgilashda lingvodidaktikaning o‘rni	**9**
Abdushukurov B.	Alisher Navoiy asarlaridagi qadimgi turkiy fe’llar semantikasi	**16**
Xudoyberdiyev J.	Mahmud Koshg‘ariy – singarmonizmning birinchi nazariyotchisi va ovrupolik olimlarning singarmonizm haqidagi xato qarashlari	**30**
Abdurahmanova M.	Alisher Navoiy merosi psixolingvistik talqinda	**45**
Xolmurodova M.	“Nasoyim ul-muhabbat” asaridagi tabobatga doir ayrim arabcha so‘zlar	**51**
O‘razova I.	Ot frazemalarning grammatik funksiyasi (Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi frazemalar misolida)	**56**
Maxkamova D.	O‘zbek tili axborot-kommunikatsiya texnologiyalari	**60**

	terminologiyasi taraqqiyoti va tadqiqi	
Oripova M.	Sinestezik metaforalarda sezgilar interperatsiyasi	**66**
Muratova N.	Tilak va tabrik nutqiy aktlarida kommunikativ taktikaning tanlanish xususiyatlari	**72**
Abdullayeva G.	Folklor diskursida o‘xshatishlarning semantik-struktur va kognitiv tahlili	**78**
Xayrullayeva R.	Kichraytirish-erkalash shakllarining pragmatik ifodalanishi	**86**
Jumaniyozova Ch.	Sifat so‘z turkumida obyektiv va subyektiv belgilarning ifodalanishi	**90**
Abduvaliyeva K.	“Shajarayi turk” asaridagi ba’zi urug‘ nomlarining etnotoponim sifatidagi tahlili	**95**
Mullaboyeva Sh.	O‘zbek tilida o‘xshatishlar asosida estetik bahoning ifodalanishi	**107**
Mamadoliyeva M.	Graduallik kategoriyasining lingvistik tabiati va uning turdosh hodisalar bilan munosabati (Xayriddin Sultonov va Iqbol Mirzo asarlari misolida)	**115**
Mamarasulova M.	O‘zbek tili fonosemantik tahlilining fonologik asoslari	**130**
Siddiqova N.	O‘zbek xalq maqollaridagi eskirgan leksika: tarkibi,	**132**

	variantlanishi va lingvopoetik vazifalari	
Yusupova A.	Konseptlarning metaforik ifodalanishi va tahlil shakllari	**144**
O‘ralova N.	O‘zbek tilshunosligida parsellyatsiya hodisasi, uning sintaktik tavsifi va ega-kesim munosabatidagi o‘rni	**150**
Maxmudova M.	Kelishik kategoriyasining o‘rganilish tarixiga doir ayrim mulohazalar	**158**
Nurmatova S.	O‘zbek tilida rang ifodalovchi birliklarning lingvokognitiv strukturasi va konseptualizatsiya masalalari	**168**
Keldiyorova Z.	O‘zbek tilidagi shikoyat matnlarida nutqiy aktlarning ifodalanishi	**174**
Aliqulova Z.	Toponimlarning axborotni saqlash va uzatish xususiyatlari	**178**
Jurayeva Sh.	Hurmat kategoriyasining lisoniy birliklar bilan ifodalanishi	**183**
Karimova U.	Kultegin bitiktoshidagi xarakter-xususiyat bildiruvchi sifatlar tahlili	**188**
II. O‘ZBEK TILINI XALQARO MAYDONDA TARG‘IB QILISH STRATEGIYALARI		
Shamsiyeva M.	Peyzaj matnlari orqali turizmni rivojlantirish istiqbollari	**194**

Jo‘rayeva M.	Matnni tushunishda asar sarlavhasining ahamiyati	**201**
III. GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY TIL VA MADANIYATNI SAQLASH MASALALARI		
Ashirboyev S.	Adstrat sharoitidagi turkiy shevalarning o‘zaro ta’siri masalasi	**205**
Farhad Rahimi	Yakşı/ ĥoş, yap/ lap, ķop/ köp/ ĥob, appaķ/ pāk kelimeleri üzerine On the words yakşı/ ĥoş, yap/ lap, ķop/ köp/ ĥob, appaķ/ pāk	**210**
Xakimova M.	O‘zbek tilidagi metaforik konseptuallashtirishning milliy xususiyatlari	**232**
Abbozov O.	So‘x toponimlarining lingvomadaniy xususiyatlari	**238**
Komilova G.	O‘zbek tilida qadriyatlar tipologiyasining lingvistik verbalizatsiyasi	**245**
Xomidova M.	Zamonaviy o‘zbek badiiy matnlarida ertak elementlarining intertekstual xususiyatlari	**253**
Həsənzadə Səmra	Qrammatik metaforun türk dillərində reallaşması (özbək dilinin materiallari əsasinda)	**261**
Davronova Z.	Antroponimik freymlarda registrdan og‘ish fenomini (Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani misolida)	**272**

Tursinbayeva Sh.	Badiiy matnda onomastik birliklarning lingvomadaniy imkoniyatlari	**276**
Bekmuradova I.	O‘zbek tilidagi ijobiy fe’l-atvor leksemalarining semantik tasnifi	**283**
Imomova I.	Fitratning dramatik asarlarida maqollarning qo‘llanilishi va funksional-semantik xususiyatlari	**291**
Turgunboeva D.	Globallashuv sharoitida o‘zbek va ingliz lingvomadaniyatida miqdoriy me’yor	**297**
Amrullayeva M.	O‘zbek tilida inson xarakterini ifodalovchi frazemalarning semantik mikromaydonlari	**305**
Abdug‘afurova A.	Lingvomadaniy kodlarning poetik faollashuvi: Faxriyor va Ulug‘bek Hamdam she’riyati qiyosida	**312**
Muzaffarova Z.	Badiiy matnda qo‘llangan metaftonimik birliklarning kognitiv xususiyatlari	**322**
Jumayeva M.	Son komponentli lug‘aviy birliklarning lingvokulturologik tahlili	**327**
Xolmo‘minova H.	Frazemalarning lingvomadaniy tahlili	**333**
IV. O‘ZBEK TILINI O‘QITISHNING ZAMONAVIY METODLARI VA XORIJIY TAJRIBA		

Xusanova N.	Raqamli ta’lim muhitida o‘qish savodxonligi transformatsiyasi vositasida boshlang‘ich o‘quvchilarning kreativligini shakllantirish	**337**
Mamirova X.	Bolalarda ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘zlashtirishning psixolingvistik mexanizmlari va til ta’limiga ta’siri	**344**
Arolova N.	Maktabgacha yoshdagi o‘zbek bolalari nutqida sintaktik tejamkorlik	**351**
Mirnosirova D.	Nutqiy ijod haqidagi nazariy qarashlar talqini	**356**
Nurboboyeva R.	Erta yoshdagi bolalar ta’limida adabiyotning tutgan o‘rni	**363**
Keldiboyeva M.	O‘zbek tili omonimlarini o‘zlashtirishda kontekst va assotsiatsiyaning psixolingvistik roli	**369**
V. TARJIMA VA LINGVOMADANIY ALOQALAR: XALQARO HAMKORLIKNING MUHIM OMILI SIFATIDA		
Mustafa Said Arslan	Türkiye türkçesi ve özbek türkçesi arasindaki yakinliğin öğretimdeki yansimalari: özbek türkçesi öğretiminde karşilaşilan sorunlar ve öneriler	**378**
Kalanova D.	O‘.Hoshimov “Dunyoning ishlari” asarining koreyscha tarjimasida milliy-madaniy realiyalarning berilishi	**389**

Muhammadiyeva D.	Ko‘p tilli parallel korpusning tarjima birliklarini qiyosiy o‘rganishdagi imkoniyatlari	**400**
Abbasova Ş.	Özbek Yazı Dili ve Azerbaycan Türkçesi'nin Ağızlarında Akrabalık Terimleri	**411**
Qarshiyev K.	Badiiy tarjimaning adabiy-estetik tafakkur evolyutsiyasiga ta’siri (Jamol Kamolning tarjimonlik faoliyati misolida)	**418**
Rahimova Z.	Parallel korpuslarning tarjimashunoslik va qiyosiy tilshunoslikdagi ilmiy ahamiyati	**428**
Bozorova S.	Rus tilidagi ayrim gippologik birliklar tadqiqiga doir	**433**
Axmedova N.	O‘zbek va ingliz tillarida ruhiy holat birliklarining semantik farqlari va kontekstual tarjimasi	**442**
Davlatova R.	Sun’iy intellekt asrida inson nutqi, tilni idrok etish va psixolingvistik jarayonlar	**448**
Turdiyeva R.	Ingliz, qoraqalpoq va o‘zbek tillaridagi maqollarda zoonimlarning lingvokognitiv tahlili (“bo‘ri” misolida)	**462**
Ataniyazova S.	O‘zbek va ingliz tillarida mayl, zamon va modallikning muloqot xulqidagi funksional-uslubiy imkoniyatlari	**466**
Sayfiyeva K.	O‘zbek va ingliz fitonim komponentli maqollarida inson	**472**

	konseptining kognitiv metaforik modellari	
Tillayeva O.	O‘zbek va turk maqollarida erkak konseptining semantik maydoni	**485**
Musurmankova Sh., **Abdullayeva D.**	“Ikki eshik orasi” romanidagi murojaat birliklarining lingvomadaniy xususiyatlari va tarjima muammolari	**495**
Abdullayeva M.	Ingliz va o‘zbek maqollarida nutqiy antonimiyaning lingvokognitiv xususiyatlari	**502**
VI. AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA RAQAMLI MUHITDA O‘ZBEK TILINING RIVOJI		
Abjalova M.	O‘zbek tili multikorpusida aksentologik korpus va uning ahamiyati	**513**
Elova D.	O‘zbek normativ-huquqiy matnlarini lingvo-mantiqiy annotatsiyalash mezonlari	**524**
Kasimova Z.	O‘zbek tili iboralar korpusini yaratishning lingvistik va kompyuter asoslari	**534**
Nurullayeva O.	Barqaror birikmalar resurslari va parallel korpus uchun baza tuzish mezonlari	**542**
Musulmonova K.	Lingvistik ekspertologiyada matn identifikatsiyasi bo’yicha ekspert xulosalarini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari	**550**

Umarova Sh.	Kollokatsiyalarni korpus asosida aniqlashning nazariy va metodologik asoslari	**556**
Akramdjanova M.	Parallel korpusning madaniyatlararo kommunikatsiyadagi o‘rni	**564**
Buronova R.	Raqamli muhitda o‘zbek tilidagi neologizmlarning shakllanishi	**570**
Shodmonaliyeva Y.	Sentiment tahlilda tasdiq-inkor emojlarining diskursiv va pragmatik funksiyalari	**576**
Rayimjonova M.	Rauf Parfi she’riyatining leksik-statistik xususiyatlari	**591**
VII. XALQARO TA’LIM DASTURLARI VA O‘ZBEK TILI: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLAR		
Mirzəli Məleykə	Azərbaycanda özbək dilinin tədrisi: təcrübə və perspektivlər (bakı slavyan universitetinin timsalında)	**595**
Iskandarova G.	O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganishda so‘z ma’nolarini o‘zlashtirish	**603**
VIII. O‘ZBEK TILI VA DIPLOMATIYA: XALQARO MUNOSABATLARDA TILNING O‘RNI		
Темирова Б., **Темирова М.**	Кыргыз, өзбек тилдери жана алардын адабий-маданий байланыштардагы ролу	**610**

Nazarov Q.	O‘zbek diplomatik diskursida metaforalarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari	**620**
IX. ILMIY TADQIQOTLAR VA LINGVISTIKADA XALQARO HAMKORLIK MASALALARI		
Berdak Yusuf	O‘zbek tilining shakllanish jarayoni va eski o‘zbek tili terminlari	**626**
Qurbonova M.	Xarizmatik nutq haqidagi nazariy qarashlar talqini	**632**
Umurzoqova M.	Erkin A’zam asarlarida lisoniy shaxs tiplari	**640**
Mirzaali Malika	O‘zbek tılının mavsumıy marosımlar leksıkasıda turkıy areal mavqeyı	**646**
Məmmədova A.	Xarəzm Türkcəsində Və Müasir Özbək Dilində Qohumluq Terminlərində Cins Kateqoriyasinin İfadəsi	**661**
Tuxtasinova M.	L.Z.Budagov lug‘atidagi umumturkiy leksik fond: “tur.” pometali leksemalarning tarixiy-qiyosiy tahlili	**670**
Abdullayeva S.	So‘z yasalishını qıyosıy-tıpologık tadqıq etısh metodologıyası va tahlıl mezonları	**681**
Xasanova G.	Kinesikaning lingvistik tadqiqi: shakllanish tarixi va kommunikativ funksiyalari	**688**

Rajabov N.	O‘zbek tilida ng fonemasining talaffuzi, imlosi va tarixiy taraqqiyoti	**695**
Mirzayeva G.	O‘zbek tilida tovush o‘zgarishlarining neyrolingvistik asoslari	**699**
Arislanova M.	She’riy matnning konseptual tizimi va lingvokognitiv xususiyatlari (Erkin Vohidov ijodi misolida)	**706**
Muhammadiyeva M.	“Shum Bola” qissasidagi ba’zi polisemantik leksemalar tahlili	**717**
Abdullayev G‘.	Fitrat she’riyatidagi turkiy so‘zlarning emotsional-ekspressiv xususiyatlari	**722**
Tursunova S.	Ironiyada implikatura fenomeni va yashirin ma’no mexanizmlari	**726**
Turobova N.	Badiiy diskursda morfologik vositalarning pragmatik xususiyatlari	**737**
Utegenova O‘.	O‘zbek tilida tasviriy ifodalarning badiiy matnda qo‘llanilishi	**744**
Komilova G.	Tarixiy-badiiy matnlar korpuslarini yaratish zarurati va ularni semantik modellashtirish masalalari	**749**
Haydaraliyeva Sh., Mo‘minova M.	O‘zbek tili leksikasining taraqqiyot tamoyillari va semema tushunchasi	**759**

Axmedova M.	Diskurs tushunchasining lingvistik talqini: nazariy yondashuv va ilmiy qarashlar	**768**
Komilova Sh.	Lingvokultrologiyada evfemizm va milliy mentalitet: ayollar nutqi misolida nazariy talqinlar	**774**
Suyunova D.	“Boburnoma” dagi leksik qatlamlarning “Boburiynoma”da badiiy qayta faollashuvi: leksik-semantik va funksional-uslubiy tahlil	**780**
Maqsudaliyeva Y.	Lingvistik ekspertiza va lingvokriminalistik tahlil: nazariya va amaliyot	**786**
Abdurasulova D.	O‘zbek qizlari nutqidagi neonim va slenglarning pragmalingvistik tadqiqi	**792**
Majidova M.	Tibbiy soha rahbarlari kinesik nutqining lingvosomatik tadqiqi	**797**
Abdullayeva I.	Gender qadriyatlarning aksiolingvistik tahlili	**802**
X. O‘ZBEK TILINING OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI VA MEDIA MAKONIDAGI O‘RNI		
Saydaliyeva M.	Kinodiskurs multimediali muloqot tizimi sifatida	**809**
Otaxonova S.	Mediamatnlarda antroponimlarning pragmatik imkoniyatlari	**813**